

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

SAMARQAND VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNI MALAKASINI OSHIRISH  
HUDUDIIY MARKAZI

**G.A.ERGASHEVA**

**O‘QISH DARSLARIDA SHE’RIY MATNLAR  
VA EPIK SHE’RLAR USTIDA ISHLASH  
METODIKASI**

*Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun  
uslubiy qo‘llanma*

**SAMARQAND – 2021**

**UO‘K 37.091.33:811.512.133(072)**

**KBK 74.268.181.2O‘zb**

**E 74**

Ergasheva G - SamVXTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi O‘qish darslarida she‘riy matnlar va epik she‘rlar ustida ishlash metodikasi. *“Umumta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy qo‘llanma”*. SamVXTXQTMOHM 2021-yil, 66 bet.

**Muharrir:** **J.Eshquvvatov** - SamVXTXQTMOHM  
Ilg‘or tajriba va xalqaro hamkorlik ilmiy-  
axborot tadqiqotlar bo‘limi boshlig‘i

**Taqrizchilar:** **Z.Qurbonov** - SamDU f/ f doktori (PhD)

**T.Tolipova** – SamVXTXQTMOHM  
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta‘lim  
metodikalari kafedrası o‘qituvchisi

Ushbu uslubiy qo‘llanmada o‘qish darslarida she‘riy matnlar va epik she‘rlar ustida ishlash metodikasi haqidagi ma‘lumotlar o‘z aksini topgan

*Uslubiy qo‘llanma hududiy markaz Ilmiy-uslubiy kengashining 2021- yil 16- apreldagi 2-sonli yig‘ilish qarori bilan nashr etishga ruxsat berilgan.*

**ISBN 978-9943-8048-6-9**

© G.Ergasheva  
© “Qamar media” nashriyoti

## KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uni bosqichma-bosqich yuqori samaralarga erishish borasida katta yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim sohasini, ta'lim-tarbiya jarayonlarini sifat jihatdan yuqori pog'onaga ko'tarish jamiyatimizning ustivor sohalaridan biri sifatida e'tirof etib, ta'lim maskanlarini yangilab, jahon standartlariga javob beradigan qilib qurib va jihozlab o'quvchi yoshlarning bilim olishlari uchun katta imkoniyatlar yaratayotgani yoshlar kelajakning yaratuvchilari ekanini e'tirof etganligidan dalolatdir. Modomiki, qaysi bir jamiyat kelajakning muqaddas marralariga ishonch bilan odim tashlab borar ekan, ta'lim va tarbiyaga, yoshlarning kamolotiga e'tibor berishi tabiiy va qonuniydir. Bu jihatdan har bir yosh, har bir yigit-qiz, har bir iste'dod egasi alohida diqqat va e'tiborga molikdir. Bu birinchi navbatda mamlakatimizning intellektual salohiyatini saqlab qolish va rivojlantirish, uning ma'naviy kamolotini ta'minlash bilan aloqador.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda yo'lga qo'yish, yaratilgan shart-sharoitlardan samarali foydalanib, yuqori bilimli o'quvchi yoshlarni tarbiyalash va ularni hayotga tayyorlash biz o'qituvchi kadrlarning mas'uliyatli vazifamizdir. Yoshlarga ta'lim-tarbiya berish barcha predmetlar kabi o'qish darslarida ham amalga oshiriladi.

Albatta, sinfda o'qish predmeti uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashda asosiy tayanch predmet sanaladi: "har qanday tarbiyada, hatto yuksak rivojlangan demokratik tarbiya tizimida ham ozmi-ko'pmi bajarilishi shart bo'lgan holatlar mavjud. Masalan, bolani go'dakligidan yuz-qo'lini yuvishga o'rgatmasangiz, kerak bo'lsa majbur qilmasangiz, yuviqsiz holda dasturxon atrofiga o'tirishi unga odat bo'lib qoladi. Xalqimizga azaldan xos bo'lgan sharm-hayo, andisha, ota-onaga hurmat, kattalarga izzat-ehtirom, kichiklarga shafqat kabi olijanob fazilatlar ham o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi.

Demak, o'qish darslari bu jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

## **O‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘nalishlari**

Nutq - kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq o‘stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug‘ati, sintaktik qurilishini, bog‘lanishli nutqni) faol amaliy o‘zlashtirish tushuniladi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun quyidagi shartlarga rioya qilish zarur:

1. Kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo‘lishi kerak. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik talabi o‘quvchi o‘z fikrini, nimanidir og‘zaki yoki yozma bayon qilish xohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish lozim.

2. Har qanday nutqning mazmuni, materiali bo‘lishi lozim. Bu material qanchalik to‘liq, boy, qimmatli bo‘lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo‘ladi.

3. Fikr tinglovchi tushunadigan so‘z, so‘z birikmalari, gap, nutq oborotlari yordamida ifodalansagina tushunarli bo‘ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning uchinchi sharti – nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi<sup>1</sup>.

Professor K.Qosimovanning “Ona tili metodikasi” darsligida nutqni egallashning uchta aspekti ko‘rsatilgan:

1. Adabiy til meoyorlarini o‘zlashtirish. Maktab o‘quvchilarni adabiy tilni sodda so‘zlashuv tilidan, sheva va jargondan farqlashga o‘rgatadi, adabiy tilning badiiy, ilmiy, so‘zlashuv variantlari bilan tanishtiradi.

2. Jamiyatimizning har bir a‘zosi uchun zarur bo‘lgan muhim nutq malakalarini, ya’ni o‘qish va yozish malakalarini o‘zlashtirish. Bu bilan o‘quvchilar yozma nutqning xususiyatlarini, uning og‘zaki-so‘zlashuv nutqidan farqini bilib oladi.

3. O‘quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til jamiyatdagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy

---

<sup>1</sup> K.Qosimova va b. Ona tili metodikasi. -T.: Noshir. 2009. 279-bet.

ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi<sup>2</sup>.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o'stirish uch yo'nalishda olib boriladi:

- 1) so'z ustida ishlash;
- 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazeologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa mantiqqa, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atni boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Nutq o'stirishda mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, umumiy maqsadga bo'ysundirilganligi muhim sanaladi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi.

Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Ona tili ta'limi o'z ichiga o'qishni ham qamrab oladi.

O'quvchilar nutqini o'stirishga muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quvchilar nutqi mazmundor bo'lishi lozim. Masalan, o'quvchi hikoyasi va inshosining mazmuni dalillar bilan boyitilsa, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va teleko'rsatuvdan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo'ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko'rmagan

---

<sup>2</sup> K.Qosimova va b. Ona tili metodikasi. -T.: Noshir. 2009. 280-bet.

voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz soʻzlashga yoʻl qoʻyilsa, nutq mazmunsiz chiqadi.

2. Nutqda mantiqiylikka ega boʻlishi kerak. Oʻquvchilar nutqi mantiqan toʻgʻri boʻlishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy oʻrinlar tushirib qoldirilmasligi va oʻrinsiz takrorga, mavzuga taalluqli boʻlmagan ortiqchalikka yoʻl qoʻyilmasligi talab etiladi.

3. Nutq aniq boʻlishi zarur. Oʻquvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (soʻz, soʻz birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga oʻrgansin.

4. Nutq til vositalariga boy boʻlishi Mazmunni aniq ifodalash uchun oʻquvchi nutqi til vositalariga boy boʻlishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish koʻnikmasiga ega boʻlishi zarur.

5. Nutq tushunarli boʻlishi. Ogʻzaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni oʻquvchiga tushunarli boʻlishi zarur.

6. Nutq ifodali boʻlishi. Agar nutq ifodali, yaʼni jonli, chiroyli, ishontiradigan boʻlsa, eshituvchiga yoki oʻquvchiga taʼsir etadi. Ogʻzaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali taʼsir etsa, ogʻzaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va oʻquvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan soʻzlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar yordamida taʼsir etadi.

7. Nutq toʻgʻri boʻlishi. Maktab uchun nutqning adabiy til meʼyorlariga mos va toʻgʻri boʻlishi alohida ahamiyatga ega<sup>3</sup>.

Yuqorida sanab oʻtilgan talablar oʻzaro bir-biri bilan uzviy bogʻliq boʻlib, maktab ishlari tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

---

<sup>3</sup> K.Qosimova va b. Ona tili metodikasi. -T.: Noshir. 2009. 282-283-betlar.

## She'riy matnlar ustida ishlash

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi.

She'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo'llangan ish turlaridan foydalanish mumkin.

Lirik she'rni o'qish va tahlil qilishda she'riy san'at hissiyot bilan bog'liq ekanligi unutiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma'noni uqish mehnattalab ishdir. Busiz hatto adabiy ta'limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She'riy ohangni his qilmaslik, matn so'zlarini to'la tushunib yetmaslik she'r yodlashni qiyinlashtiradi. Ma'nosi anglanmagan matnni yodlash oson bo'lmaydi. Matndagi so'zlar, iboralar o'quvchilarga izohlab tushuntirilmasa, ta'limdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning "*Qish to'zg'itar momiq par*" she'rini o'rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She'rni o'qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o'tkaziladi yoki she'r mazmunini tushunish uchun o'quvchilar bilishi lozim bo'lgan voqealarni o'qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish zarur. O'qituvchi she'rni ifodali o'qib beradi, so'ngra o'quvchilarga she'rni mustaqil o'qishga topshiradi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari kerak.

“Qish” (Tursunboy Adashboev) she’rining hajmi unchalik katta emas. Lekin u qishda hayvonlar hayotida ro’y beradigan o’zgarishlarni bilib olishga yaqindan yordam beradi. Bu she’rni o’qishdan oldin ham o’quvchilar bilan savol-javoblar o’tkaziladi. O’quvchilar diqqati hayvonlarning qishdagi hayotiga qaratiladi. Masalan, qishda yovvoyi quyonlarning rangi o’zgarib, qorda o’zini dushmandan himoya qiladigan oq rangga kirishi, ayiqning o’siq yunglari sovuqda yashashga qo’l kelishi to’g’risida tushuncha beriladi. She’r matni bilan tanishishdan oldin xattaxtaga “ayoz”, “quyruq”, “so’qmoq”, “piyma”, “po’stin” “pahmoq” so’zlari yozilib, ma’nosi izohlanadi. She’rni navbat bilan o’quvchilarga to’rt-besh marta o’qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o’tkaziladi. Qishda qor bosgan dalalarni, tomlarni, daraxtlarni, odamlarning va qushlarning qishdagi hayotini kuzatish o’quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqining ifodali, sermazmun bo’lishi uchun boy material beradi.

O’quvchilar barglari to’kilib, sovuqda qor bosib turgan daraxtlarni ko’rar ekan, shu holatni ifodalagan “qor ko’rparasiga o’rangan yalang’och daraxt” yoki “sovuqda mudrayotgan daraxt” kabi iboralarni topishga harakat qiladi, bu esa o’quvchilarning lug’at boyligining oshishiga xizmat qiladi.

She’r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she’r mazmuni haqida o’quvchilarga ko’p savol berish tavsiya etilmaydi. Boshlang’ich sinflarda o’rganiladigan ko’pgina she’rlarni tahlil qilib, ifodali o’qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

Kichik yoshdagi o’quvchilarga she’rni qanday yodlash kerakligi o’rgatiladi. Epik (voqeiy) she’rlar yoki she’riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo’lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o’xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo’laklarning izchil va bir me’yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so’zlarning qo’llanishi bilan she’riy nutq sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni o’rganishda she’r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalaniladi.



She'rni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) *she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);*

2) *she'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida suhbat (analiz);*

3) *she'rni ifodali o'qishni mashq qilish (ikkinchi sintez);*

4) *she'rni yod aytib berishga tayyorlanish.*

5) *epik (voqeiy) she'rlar ustida ishlash<sup>4</sup>.*

Lirik she'rni o'qish darsi namunasini keltiramiz:

**Mavzu:** Bahor uyg'onish fasli.

**O'quv material.** Bahor (Qudrat Hikmat).

**Darsning maqsadi:**

1. O'quvchilarning bahor faslida tabiatda, hayvonot va qushlar hayotida bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi bilimlarini boyitish.

2. Bahor faslida tabiatni kuzatishga, undagi o'zgarishlarni payqab olishga o'rgatish.

3. Tabiatni sevish, asrash, uning gullab-yashnashi uchun hissa qo'shishga yo'llash.

4. O'quvchilar nutqini yangi so'zlar bilan boyitish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, she'r o'qish darsi.

**Dars shakli:** noanoanaviy dars.

**Dars metodi:** kichik guruhlar bilan ishlash, mustaqil ish metodi, suhbat metodi, tarmoqlash metodi.

**Darsning jihozi:** korton qog'oz, rangli flomaster, gul, qushlar rasmi, tabiiy hodisalar tasviri.

### **DARSNING BORISHI:**

**Tashkiliy qism.** Sinf o'quvchilari 4 guruhga ajratiladi.

**I. Daovat bosqichi.** Maqsad: o'quvchilarning bahor fasli, undagi hayot haqidagi tushunchalarini aniqlash, yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash va qiziqish uyg'otish.

**Metod:** mustaqil ish metodi.

---

<sup>4</sup> K.Qosimova va b. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir. 2009. 218-219-betlar.

**1. O'quvchilar guruhiga o'tilgan mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar yozilgan kartochka solingan konvertlar beriladi.**

**Savol-topshiriqlar:**

**1-guruh uchun:** – Bahor fasli haqida qaysi asarni o'qib keldingiz? Unda tabiatdagi ob-havo o'zgarishlari qanday tasvirlangan? So'zlab bering.

– “Nasim”, “firdavs” so'zining maonosini izohlab bering.

– «Bahor taorifida» matnining 1-qismini ifodali o'qib bering.

**2-guruh uchun:** – «Bahor ta'rifida» asarida yerning yuza qismidagi, dov-daraxtlardagi o'zgarishlar qanday tasvirlanadi? So'zlab bering.

– “Chin” so'zining maonosini izohlab bering.

– Asarning 2-qismini ifodali o'qib bering.

**3-guruh uchun:** – Qushlar hayoti qanday tasvirlanadi? Shularni so'zlab bering.

– Kaklik, oqqush, o'rdak kabi qushlarni rasmlar ichidan tanlab ko'rsating.

– Asarning 3-qismini ifodali o'qib bering.

**4-guruh uchun:** – Hayvonlar harakati qanday tasvirlangan? Shu o'rinni hikoya qilib bering.

– Jayronning rasmiga qarab, uning tashqi ko'rinishini tasvirlang.

– Asarning 4-qismini ifodali o'qib bering.

O'quvchilar to'plagan ballar eolon qilinadi.

**2. Badiiy til vositalari ustida ishlash.**

**O'qituvchi:** – Bugun darsda daraxtdagi olmalardan uzishga ruxsat beraman. Faqat uning orqasiga yozilgan savol-topshiriqni bajarsangiz, olma sizniki bo'ladi va uni o'z savatchangizga solasiz.

Har bir guruhdan o'quvchilar navbat bilan chiqib olmalardan oladi va shu vaqtning o'zidayoq savollarga javob beradi.

**Savol-topshiriqlardan namunalar:**

– O'qing. Qanday badiiy vosita qo'llanganini ayting.

“Uyquga kirgan daraxtlar yana yashil to'n kiydi, oq, sariq, ko'k, qizil rangli yoping ichlar bilan bezandi”.

– O'qing. Qanday badiiy vositalar qo'llanganini ayting.

“Bo‘z yer yuziga yashil parda tortdi, go‘yo Xitoy karvoni Chin hariri ipak matolarini har tomonga yoydi”.

– O‘qing. Qanday badiiy vosita qo‘llanganini ayting.

“Qora qarg‘a tumshug‘ini ko‘pirtirib qag‘illaydi, uning ovozi tantiq qizning ovozi kabi yoqimsizdir”.

– O‘qing. Qanday badiiy vosita qo‘llanganini ayting.

“Mag‘rur turnalar ko‘kda ovozini baralla yangratmoqda, tizilgan tuya karvonidek uchmoqda”.

Guruhlar bali eolon qilinadi.

### **3. Matnni topshiriqlar asosida o‘qitish.**

– «Bahor ta’rifida» matnini o‘qing. Undan ko‘chma maonoda qo‘llangan so‘zlarni toping (*Bahor nafasi, firdavs yeli, o‘z hukmiga, harir yoping‘ich, har tomonga yoydi, kaklik kulmoqda, gullar yuz ochib, qah-qah urib kulmoqda* kabi). Guruhlarning bali eolon qilinadi.

### **4. Bahor fasli haqida o‘quvchilar tushunchasini aniqlash.**

– Bahor fasliga xos xususiyatlarning tarmoqlash usulida ifodalang, uni doskaga iling va izohlab bering.

– «Bahor» she’ri muallifi Quadrat Hikmat haqida nimalar bilasiz? Og‘zaki gapirib berishga tayyorlaning. Shoirning qaysi she’rlarini yod bilasiz? (O‘quvchilar «Qish to‘zg‘itar momiq par» she’rini aytishadi)

#### **O‘qituvchi hikoyasi:**

Q. Hikmat bolalar uchun she’rlar yozgan. Shuning uchun bolalar shoiri deb aytishadi. U Toshkentda tug‘ilgan. Pedagogika oliygohida o‘qigan. U atigi 43 yil yashagan. Lekin bolalar uchun ko‘plab she’riy to‘plamlarni yaratgan. Uning «Mening Vatanim», «Baxtli bolalar», «Uch o‘rtoqning sovg‘asi», «Soatjonning soati», «O‘g‘lim bilan suhbat» to‘plamlari bor.

Guruhlarning bali eolon qilinadi.

## **II. Anglash bosqichi.**

**Maqsad:** «Bahor» asari orqali o‘quvchilarning bahor tabiati, qushlarning harakati haqidagi bilimlarini boyitish, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish.

O‘quvchilar nutqiga “*mayin shamollar*”, “*soyabon tollar*”, “*tong yellari*”, “*o‘tlar tebrantar*”, “*ko‘kni quchgan teraklar*” iboralarini kiritish.

**Metod.** Mustaqil ish metodi.

**1-topshiriq.** She’rni ichingizda o‘qing. Ifodali o‘qib berishga tayyorlaning.

O‘qish uchun 1-2 daqiqa beriladi. So‘ng har bir guruhdan 4-5 o‘quvchiga o‘qitiladi. Ular baholanib boriladi, guruhning ifodali o‘qish bo‘yicha umumiy bali eolon qilinadi.

**2-topshiriq.** Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishleng. Har bir guruh o‘z ichida savol-topshiriqlarni bo‘lib olib, tayyorgarlik ko‘rsin.

Tayyor o‘quvchi joyidan turib javobini aytaveradi. Guruhlar bir-birining javobini to‘ldiradi.

### **III. Fikrlash bosqichi.**

**Maqsad:** O‘quvchilarning mavzu yuzasidan olgan bilimlarini, hayotda ko‘rgan-kuzatganlarini, eshitganlari bilan bog‘lab ifodalab berishga o‘rgatish. Dars taassurotlarini eshitish orqali keyingi darsning vazifalarini rejalashtirib olish.

**Metod.** Suhbat metodi.

#### **Savollar:**

- *Bugungi darsda nimalarni bilib oldingiz?*
- *She’rni o‘qishdan oldin bahor, uning ob-havosi, tabiat ko‘rinishi, qushlar hayoti haqida nimalarni bilar edingiz?*
- *Bugungi darsda qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?*
- *Dars sizga yoqdimi?*
- *Sizningcha, darsda qaysi guruh faol ishtirok etdi?*

O‘quvchilarning fikri umumlashtirilib, guruhlar to‘plagan ballar va ayrim faol o‘quvchilarning bahosi eolon qilinadi.

**Uy vazifasi:** She’rni yod olish. She’r mazmuniga mos rasm chizish.

**Mavzu:** “Qaysar Buzoqcha” masali (O.Qo‘chqorbekov)

**Darsning maqsadi:** O‘quvchilarga O. Qo‘chqorbekov hayoti va ijodi, masal janri, qofiya, she‘r tuzilishi haqida nazariy ma‘lumot berish. “Qaysar Buzoqcha” masali matni ustida ishlash, lug‘atni “yaylov”, “to‘da”, “poda” so‘zlari va “Bo‘linganni bo‘ri yer” maqoli bilan boyitish. O‘quvchilarning ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, savol- topshiriqlar ustida mustaqil ishlashga o‘rgatish. Qahramonlarga tavsif berish malakasini oshirish.

a) O‘quvchilarda mehnatsevarlik tuyg‘ularini shakllantirish. Halol mehnat haqida tushuncha berish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat metodi.

### **Darsning borishi:**

**1. Tashkiliy qism:** salomlashish davomatni aniqlash, darsga tayyorgarlikni kuzatish.

#### **2. O. Qo‘chqorbekov hayoti va ijodi haqida ma‘lumot.**

O. Qo‘chqorbekov Toshkentlik, Zangi ota tumanida 1932- yilda tug‘ilgan. Dehqon oilasida tavallut topgan. 40 yil ”Mushtum” jurnalida ishlagan. Uning birinchi she‘ri 1948-yilda e‘lon qilingan. U bolalar uchun ”Chorichambar”, ”Sirli xum”, ”Qaysar buzoqcha” kabi kitoblarini yozgan. Olim Qo‘chqorbekovga 1973- yilda ”O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoni berilgan.

Yozuvchi ko‘plab hajviy asarlar yozib, hayotdagi kamchiliklarni tanqid qilgan.

**3. Masal janri haqida ma‘lumot .** Masalni qadimda xalq yaratgan. Masalda voqealar o‘simlik , hayvon, parrandalarning xatti-harakatlari orqali tasvirlangan. Bu voqealarni majoziy obrazlar – qahramonlar orqali ifodalash deyiladi. Voqealar ba‘zan inson obrazlari orqali tasvirlanadi. Masal orqali hayotdagi kamchiliklar tanqid qilinadi. Ular ko‘pincha she‘riy shaklda , ba‘zan nasriy – hikoya shaklida ham yoziladi.

“Qaysar Buzoqcha” masalida buzoqcha hayvon, u ertaklardagi hayvonlardek gapiradi. Bu masalda kattalarning gapiga quloq solish

kerakligi, yakka o‘zi bilmaydigan joylarda yurmaslik kabi o‘git o‘z ifodasini topgan.

#### 4. “Qaysar Buzoqcha” masalini ifodali o‘qish.

Dastlab o‘qituvchi namuna sifatida ifodali o‘qib beradi. So‘ng 4-5 yaxshi o‘qiy oladigan o‘quvchiga o‘qitiladi.

#### Qaysar buzoqcha

Yaylovda bir buzoqcha\  
Arazlabdi to‘dadani.\  
Ketib qolaib uzoqqa,\  
Adashibdi podadan.\  
Buzoq shunda to‘satdan\  
Duch kelibdi bo‘riga.\  
Ma’rasa ham qancha u,\  
Bilmabdi do‘stlari hech.\  
Maza qilib och bo‘ri\  
Uni yebdi o‘sha kech.\  
Bobolar bu haqda der:\  
“Bo‘linganni bo‘ri yer”.\  
Ifodali o‘qish bir chiziq tortilgan o‘rinda qisqa to‘xtam, ikki chiziq tortilgan o‘rinda ko‘proq to‘xtam qilishlari aytiladi.

#### 5. Lug‘at ustida ishlash.

Yaylov - qo‘y-qo‘zilar, mollar o‘tlaydigan keng dala, qir.

Poda – qo‘y-qo‘zilar to‘dasi.

Bo‘linganni bo‘ri yer – maqol. Uni xalq yaratgan. Inson ko‘pchilik bilan birga ishlashi, ko‘pchilikning maslahatiga quloq solishi lozim. Ars holda yakka o‘zi baxtsiz holatlarga tushib qoladi.

#### 6. Masal matnining tuzilishi yuzasidan suhbat:

- Masal qaysi shaklda yozilgan ? (Masal she’riy shaklda yozilgan)
- Masal necha misradan iborat?( Masal 14 misradan iborat )
- Har bir misra necha bo‘g‘indan tashkil topgan? (Har bir misra 7 bo‘g‘indan tashkil topgan ).
- Bir- biri bilan ohangdosh so‘zlarni topib, o‘qing ( *buzoqcha-uzoqqa, to‘dadani- podadan, o‘tlarkan- to‘satdan, to‘riga-bo‘riga, hech-kech, der-yer*).

- Har bir bandda necha misra bor? (Har bir bandda ikki misra bor.)

7. Shu o‘rinda qofiya haqida ma’lumot berish lozim.

Qofiya - she’riy misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘z. Siz topgan ohangdosh so‘zlarni qofiya deymiz. Shoirlar she’r yozganda qofiyasiga e’tibor beradi. Siz she’r o‘qiganingizda unga e’tibor berib, ifodali o‘qiysiz.

Masal mazmuni yuzasidan suhbat:

- Masalda nima haqida gap boradi? ( Masalda buzoqchanning qaysarligi, to‘dadan ajralib uzoqqa ketishi va bo‘riga yem bo‘lishi haqida gap boradi.)

- Masaldan qanday xolosaga keldingiz? ( Bolalar har doim kattalarning maslahatini quloqqa olishi kerak, yakka o‘zi uyidan, maktabidan yiroqqa ketib o‘ynamasligi lozim degan xulosaga keldik)

Bobolarning gapini o‘qituvchining o‘zi o‘qib beradi.

8. Masal qahramonlariga tavsif berish. Ushbu topshiriqni mustaqil ravishda, yozma bajarishni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir.

O‘quvchilarga daftarga “Qaysar buzoqcha” deb yozib qo‘yish kerakligi aytiladi.

### **Buzoqcha**

qaysar

arazchan

aqlsiz

do‘stlarini qadrlamaydigan

### **9. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimini aniqlash:**

- “Qaysar buzoqcha” masalini kim yozgan?

- “Qaysar buzoqcha” dagi buzoqcha nima qildi?

- Nima uchun uni bo‘ri yeb qo‘ydi?

- Bizning ichimizda ham qaysar buzoqchaga o‘xshash bolalar bormi?

- Bunday bolalar nima qilishi kerak deb o‘ylaysiz?

- Masalni oldin kimlar yaratgan? Hozir masalni kim yozishyapti?

## **10. Uyga masalni ifodali yod olish topshiriladi. O‘quvchilar rag‘batlantiriladi.**

Xulosa qilib aytish kerakki, masal o‘qish darsida qahramonlardagi yomon va yaxshi xislatlar odamlarda uchrashi, yaxshi qahramonlardan o‘rnak olish zarurligi ochib berilishi kerak.

### **Hikoya matni ustida ishlash**

Boshlang‘ich sinflarda hikoyani o‘qishga bag‘ishlangan izohli o‘qish darslarida o‘qilgan hikoya mazmunini ochish, lug‘at ustida ishlash, o‘qilgan matni qayta hikoyalash kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi.

Hikoyani o‘qish darsida o‘quvchilar tushunmaydigan so‘z va iboralar ma‘nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar.

Hikoyani o‘qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o‘quvchilar nutqini o‘stirish markaziy o‘rin egallaydi. Hikoya o‘qib bo‘lingach, o‘quvchilar o‘ylashi, o‘z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish kerak. O‘qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi, undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta‘sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya syujeti, voqeaning yo‘nalishini ochishga, qahramonlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g‘oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Hikoya janri hayotiyliigi bilan o‘ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u bilan bog‘liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O‘quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf «O‘qish kitobi»dagi «*Dadam qurgan dengiz*» (Hakim Nazir), «*Olma*» (Malik Murodov), «*Ilmli ming yashar*» (Nurmat Maqsudiy), «*Xazonchinak*» (O‘. Hoshimov), «*Qo‘shterak*» (A. Irisov), «*Mehnatkash qiz*» (Oybek) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan.

O‘quvchilar qahramonlarning hayotiga qiziqadilar. Masalan, 3-sinfda «*Jaloliddin Manguberdi*» hikoyasida Chingizxon va uning



qo‘shinlariga nisbatan nafrat uyg‘otilsa, Jaloliddin Manguberdining xatti-harakati orqali ona-Vatanga mehr-muhabbat uyg‘otiladi, uning taqdiri orqali o‘z ajdodlaridan faxrlanish tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda hikoya syujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o‘rganish bo‘yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o‘quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

«*Jaloliddin Manguberdi*» hikoyasi qahramonlarini, ularning xatti-harakatlarini o‘rganish va tahlil qilishni matnga tayangan holda quyidagi reja asosida amalga oshirish mumkin:

1. Chingizxonning hiyla ishlatgan o‘rnini matndan topish. Uning o‘quvchilarda qanday taassurot qoldirganligini aniqlash.

2. Jaloliddin Manguberdining Eron va Afg‘onistonda mo‘g‘ullarga qarshi kurashib, erishgan g‘alabasi tasvirlangan o‘rinni topib o‘qish.

3. Lashkarboshilarning o‘lja taqsimlashi oqibatida nima yuz berganini aniqlash. Bu o‘rinni matndan topish.

4. Jaloliddin Manguberdining jasorati yana qaysi o‘rinda ko‘ringanini aniqlash.

5. Chingizxon Jaloliddin Manguberdiga nima uchun tan berganini aytish.

Shundan so‘ng o‘quvchilar Jaloliddin Manguberdi haqida ongli fikr yuritadilar. Chingizxon bilan Jaloliddin Manguberdining xatti-harakatlarini taqqoslab, farqlaydilar.

Hikoya mazmunini o‘zlashtirish bo‘yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan o‘qituvchi savollariga javob berish.

2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.

3. Hikoya mazmuni yuzasidan o‘quvchilarning savollar tuzishi.

4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.

5. Hikoya matnini qismlarga bo‘lish.

6. Har bir qismga sarlavha topish.

7. Hikoyaga reja tuzish.

8. Reja asosida qayta hikoyalash (to‘liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).

9. Reja asosida bayon yozish<sup>5</sup>.

Quyida hikoya matni ustida ishlash namunasini keltiramiz:

**Mavzu.** Shirin qovunlar mamlakatida.

**O‘quv material.** Qovun sayli (Sh. Sa’dulla).

**Darsning turi:** yangi bilim beruvchi, hikoya o‘qish darsi.

**Dars shakli:** Noana’naviy dars.

**Asosiy masalalar.** O‘quvchilarning kuz faslida poliz mahsulotlarini yig‘ib olishning tartib-qoidalari, dehqonchilik, xalq anoanalari haqidagi tushunchalarini boyitish, qovun turlari bilan tanishtirish, o‘qish malakalarini takomillashtirish.

**Tayanch tushunchalar.** *Qovun sayli, hashar, umbirvohi, ko‘kalampish, doniyor, qizilurug‘, qo‘zivoy.*

**Darsda foydalaniladigan ta’limiy vositalar:** turli qovun rasmlari, poliz mahsulotlarini yig‘ib olish tasviri, test topshiriqlari.

**Dars metodi:** izohli o‘qish, tarmoqlash, muammoli o‘qitish metodi.

**O‘qituvchining maqsadi:** 1. O‘zbekistonda yetishtiriladigan poliz ekinlari, qovun sayli haqida o‘quvchilar bilimini boyitish. 2. O‘quvchilarda ona-yurtimiz boyliklarini asrash, xalq anoanalarini hurmatlash va davom ettirish hissini tarbiyalash. 3. Lug‘atini boyitish, nutqini o‘stirish, o‘qish malakalarini shakllantirish.

**o‘quv maqsadi:**

1. Hikoya matnini to‘g‘ri, o‘quv suroatiga mos, ongli va ifodali o‘qish.

2. Asar matni yuzasidan berilgan topshiriqlarni yakka va juft bo‘lib bajarish.

3. Matn mazmunini qayta hikoyalash.

## **DARSNING BORISHI:**

### **I. Da’vat bosqichi.**

1. «Kuz» she’ri ifodali yod aytiriladi va o‘qitiladi.


2. O‘qituvchi o‘quvchilarning oldingi darslarda olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida kuz haqida, uning noz-neomatlarini haqida suhbat o‘tkazadi.

---

<sup>5</sup> K.Qosimova va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T.: Noshir. 2009. 212-bet.

- O‘lkamizga kuz fasli kelganini nimalardan bilish mumkin?
- «Oltin fasl» matnidan tabiat tasvirini topib o‘qing.
- Kuzda qaysi sabzavot va mevalar pishadi?
- Stol ustidagi uzum rasmlarini olib, nomini ayting. (kishmish, husayni, hasayni, charos, ...)
- Siz olmaning qaysi navlarini bilasiz?
- Uzum nomlarini tarmoqlash usulida ko‘rsating.

Namuna:



3. Yangi mavzuni o‘rganishga o‘quvchilarni tayyorlash. Suhbat:

– *Qovun qaysi turkumga kiradi? Sabzavotgami yoki mevalargami?*

– *Qovun nomlarini bilasizmi? Ularning nomlarini ham tarmoqlash usulida yozib ko‘rsating.*

– *«Kuz» she‘rini kim yozgan?*

– *Sh. Sa‘dullaning hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?*

4. Sh. Sa‘dullaning «Qovun sayli» hikoyasi bilan tanishtirish.

Hikoyaning birinchi darsga mo‘ljallangan qismi o‘qib beriladi yoki magnet tasmasi orqali eshittiriladi.

5. Kichik guruhlar bilan ishlash. O‘quvchilar 4 guruhga bo‘linadi. O‘quvchilar 1, 2, 3, 4 deb sanaydilar. O‘z raqamlari bo‘yicha guruhlanib, stol atrofiga o‘tiradilar.

Har bir stol atrofidagi o'quvchilarga hikoyaning qismlari bo'lib beriladi va topshiriqlar konvertlarda uzatiladi.

**1-topshiriq.** Guruhingizga nom qo'ying. Uni taoriflang.

1 – «*Handalak*» *guruhi*. Handalak bahor faslining oxirgi oyida erta pishadi. Odamlar uni sog'inib kutishadi. Handalak dumaloq, uning hidi yoqimli, o'tkir bo'ladi. Ustki qismi serto'r, mazasi tilni yorar darajada shirin bo'ladi.

2 – «*Qo'zivo*y» *guruhi*. Qo'zivo tezpishar tarvuz turi. U 95-100 kunda yetiladi. Unda 12 foiz qand moddasi bor. Tarvuz buyrak va sariq kasalligiga davo bo'ladi.

3 – «*Kishmish*» *guruhi*. Kishmish uzumning bir turi. U qora va oq ranglarda bo'lib, danaksiz va juda shirin bo'ladi.

4. «*Doniyor*» *guruhi*. Doniyor – qovunning bir turi. U juda shirin qovun bo'lib, ustida yashil va sariq rangli yo'li bor.

**II. Anglash bosqichi.** Hamma guruhga bir xil topshiriq beriladi:

*1-topshiriq.*

– Berilgan qismni, to'g'ri va ifodali o'qishga tayyorlaning. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarni lug'at daftaringizga yozing. Asosiy fikrni aniqlang.

*2-topshiriq.*

1. O'qigan qisimingizni matnga yaqinlashtirib qayta hikoya qilib bering.

2. Ma'nosi tushunarsiz so'zlarning ma'nosini izohlashga harakat qiling.

3. O'z qisimingizdagi ko'chma ma'noli so'zlarni toping va izohlang.

4. O'qigan qisimingizga sarlavha qo'ying va daftaringizga yozing.

Guruhlar ishlaridan namunalar:

«**Handalak**» *guruhi*. Lug'at ishi:

– qovun boshiga – boshiga ko'chma ma'noda;

– bejirim – ixcham;

– serto'r – po'stida taram-taram chiziqlari bor.

*Sarlavha: «Bolalik xotiralari».*

**«Qo‘zivoy» guruhi.** Lug‘at ishi:

– Dasturxon yozdilar – “yozdilar” “yoydilar” ma’nosida;

– yozdi – xat yozdi – shakldosh so‘zlar;

– o‘choq boshi – “boshi” so‘zi ko‘chma ma’noda;

*Savlavha: “Qovunxo‘rlik”.*

**«Kishmish» guruhi.** Lug‘at ishi:

– karch – qovun yoki tarvuz qismidan ko‘ndalangiga kesilgan qism;

– tilni yoray deydi – ibora, o‘ta shirin ma’noda;

– kosa – ko‘chma ma’noda, qovunning 4 dan 1 qismi.

*Sarlavha. “Tog‘amning fikri”.*

**«Doniyor» guruhi.** Lug‘at ishi:

– oy chiqdi – “chiqdi” ko‘chma ma’noda, “ko‘rindi” ma’nosida;

– quloq solinglar – eshitinglar;

– qovun dum beryapti – “pishdi” ma’nosida.

*Savlavha. «Tungi voqealar».*

O‘quvchilar hamma guruhning lug‘atini va topgan sarlavhasini daftarlariga yozib boradilar.

O‘quvchilar aniqlamagan so‘zlarni o‘qituvchi aytib, izohlab beradi.

**Ifodali o‘qish va qayta hikoyalash mashqi.** Har bir guruh o‘z qismini o‘qib, gapirib beradi.

**Rollarga bo‘lib o‘qitishda** har bir guruhdan o‘quvchilar tanlanadi. (Tog‘a, muallif, Hasan, Zuhra)

### **III. Fikrlash bosqichi.**

**1. Darslikdagi savol-topshiriqlar bilan ishlash.** Har bir guruh asar matni ostida berilgan 1-, 2-, 3-, 5- savollarga javob beradi. O‘quvchilarga qo‘shimcha savollar beriladi:

– *O‘zbek xalqining kuz faslida o‘tkaziladigan qaysi anoanaviy bayramlarini bilasiz?*

– *«Qovun sayli»da qanday ishlar qilinadi?*

**Javob namunasi.** O‘zbek xalqining kuzda o‘tkaziladigan «Hosil bayrami», «Qovun sayli» kabi ko‘pgina bayramlari bor. «Qovun sayli» qovunlar ayni g‘arq pishgan pallada o‘tkaziladi. «Qovun sayli»da

qovunlar aytishuvi ham bo‘ladi. Bunda har bir qovun o‘zini taoriflaydi, maqtaydi. Saylga yig‘ilgan odamlar qovun-tarvuzlarni uzib, yig‘ib olishga yordam beradi. Bunda odamlar pishib ketgan qovunlarni so‘yib, qovun qoqi qiladilar. Qishki qovunlarni osib qo‘yish uchun to‘rva xaltalar to‘qiydilar. Bularning hammasi dehqonga ancha yordam bo‘ladi.

**2. Reja tuzish.** Har bir guruh o‘z qismiga reja tuzadi.

Reja namunasi:

1. *Tog‘amning taklifi.*

2. *Cho‘ldagi qovun polizlari.*

3. *Qovunxo‘rlik.*

4. *Hasan va Husan chaylada.*

5. *Tungi voqealar.*

3. Reja asosida hikoyaning 1-bo‘limini to‘liq qayta hikoya qilish musobaqasi.

4. Test topshiriqlari ustida ishlash. Har bir guruhga konvertda test topshiriqlari beriladi.

*Test namunalari:*

1. *Qovun nomlari berilgan qatorni toping.*

A) Bo‘rikalla, doniyor, bosvoldi

B) Qo‘zivoy, ko‘kalanish, umrboqi

V) Charos, qizilurug‘, darolti

2. *Uzum nomlari berilgan qatorni toping.*

A) Charos, buvaki, qo‘zivoy

B) Hasayni, chillaki, kishmishi

D) Qizilurug‘, Ko‘kalapish

3. *Hasan, Husan, Fotima, Zuhra qaysi asar qahramonlari?*

A) «Oltin fasl»

B) «Xarita»

D) «Qovun sayli»

#### **4. Darsda o‘rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.**

– Fasllar va dehqonchilik bilan bog‘liq qanday anoanalarni bilasiz? O‘zingiz shunday anoanalarda ishtirok etganmisiz?

– Anoanalarni saqlab qolish va davom ettirish uchun nima qilish kerak?

**5. Uyga vazifa.** Asarning birinchi bo‘limini ifodali o‘qishga tayyorlanib, matn yuzasidan savollar tuzib kelish.

**6. Guruhlarning to‘plagan ballarini e‘lon qilish.** Bunda to‘plangan ballar e‘lon qilinadi va har bir guruhda faol ishtirok etgan o‘quvchilarni rag‘batlantiriladi.

Mazkur darsda hikoya matni ustida ishlashga to‘xtaldik. Hikoya matni ustida ishlashda asar voqealarini hayotiy voqealar bilan bog‘lashga alohida e‘tibor qaratilishi lozim.

### **O‘qish darsliklarida epik she‘rlarning tutgan o‘rni**

She‘riy asar ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She‘riy nutqni ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solish vositalari ritm (bir-biriga monand kichik bo‘laklarning izchil va bir me‘yorda takrorlanib kelishi) va qofiya (misralarning oxirida keladigan ohangdosh so‘zlar) hisoblanadi<sup>6</sup>.

She‘rni o‘qiganda kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda she‘r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya‘ni epik she‘rlar va lirik she‘rlar o‘qitiladi.

She‘riy hikoya, she‘riy ertaklarda syujet, ya‘ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she‘r “biror hayotiy voqea-hodisa ta‘sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik she‘rning xususiyati “kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta‘sirliroq ifodalashda qo‘l keladi”<sup>7</sup>.

---

<sup>6</sup> Homidiy H. va boshq. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. - T.: O‘qituvchi, 1967. 92 - bet.

<sup>7</sup> O‘sha kitob, 93 - bet

She'rni o'qish darslarida asosiy ish turi ifodali o'qish hisoblanadi. O'quvchi she'rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o'qiy oladi.

Epik she'rni, ya'ni she'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo'llangan ish turlaridan foydalanish mumkin.

Epik (voqeiy) she'rlar yoki she'riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o'xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so'zlarning qo'llanishi bilan she'riy nutq sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklarida voqealarning she'riy usulda bayon qilingan janrida asarlar juda kam.

### **O'quvchilarni epik she'rlarni o'qishga tayyorlash**

Epik she'rlarni – voqealar bayoni she'riy yo'lda ifoda etilgan asarlarni o'rganishda she'r va hikoya ustida ishlash metodlaridan foydalaniladi.

Epik she'rlarni o'qishga o'quvchilar alohida tayyorlanadi, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergan davr haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday she'rlarning mazmuni qay darajada o'zlashtirilganligiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bunda ta'limiy vositalar-rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishlashda uni qismlarga bo'lish, har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qahramonlarga tavsif berish va tarbiyaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Epik she'rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kulminatsion nuqtasi, yechimi mavjud bo'ladi. SHu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o'quvchilar tomonidan ham tuzilishi mumkin.



Bunday she'rlarni tahlil qilish asar voqealari jarayonida qahramon holatlarini o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalantirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin.

Epik she'rlarning badiiy til vositalari ma'nolarini ochish, ohangdosh so'zlarni aniqlash, band va misralar, bo'g'inlar sonini belgilash, ifodali o'qish, ayrim epizodlarni yod oldirish kabi ish turlari qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

4-sinf «O'qish kitobi»da «*Mardlik va aql yorug'ligi*» (M. A'zam), «*Har kim ekanin o'rar*» (M. Abdurashidxonov), «*Sodda qishloqi va uning eshagi qissasi*» (A. Jomiy), «*Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak*» (A.S. Pushkin), «*Bo'rining tabib bo'lgani haqida ertak*» (A. Obidjon) kabi epik she'rlar berilgan. Bu asarlar ustida ishlashda ham yuqorida ta'kidlab o'tilgan ish turlaridan foydalanish kerak.

Epik she'rni izohli o'qish darsining tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

1) epik she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berish (birinchi sintez);

2) epik she'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida tayyorlovchi suhbat (analiz);

3) epik she'rni qismlarga bo'lib o'qish;

4) epik she'r matni ustida ishlash (analiz bosqichi).

5) tarbiyaviy xulosa chiqarish (sifatli sintez).

O'quvchilarni epik she'rni ifodali o'qishga, matni ustida ishlashga o'rgatish, tasvirdagi o'xshatishlar, jonlantirishlar ustida ishlab uning ma'nosini ochib berish; o'quvchilarning she'rda ifoda etilgan voqealar asosida bilimini boyitish va nutqini o'stirish, tarbiyaviy xulosa chiqarish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Epik she'rlar o'qilganda undagi voqealarga o'xshash voqealar hikoyani yoki ertakni eslatish yo'li bilan lirik she'rlardan farqi va nasriy asarlarga o'xshashligi o'rgatiladi. Masalan: "Laqma it" she'riy ertagi o'tilganda "Qor odam" hikoyasi yoki *qor haqidagi afsona qisqa so'zlab beriladi*: Qadimda osmondan un yog'ilar ekan. Odamlar o'z ehtiyojlariga yarashasini olib, uylariga olib kirar ekan. Qishloqda bir ochko'z boy unlarning o'ziga keragidan ham ortig'ini qoplab o'z uyiga

tashiy boshlabdi. Hatto yer yuzini chegaralab olibdi. O‘z yerim degan joylardagi unlarni boshqalarga bermabdi. Shunda osmon-u qish va bulutlarning jahli chiqib, unlarni muzdek qorga aylantirib qo‘yishibdi.

### **Epik hikoyalarni o‘rganish darslarini tashkil etish usullari**

Mavzu. Keksalar –suyanch, yoshlar – tayanch

O‘quv material. Har kim ekkanini o‘rar. Munavvarqori Abdurashidxonov Darsning maqsadi.

1. Keksalarni izzat-hurmat qilishga, ularning o‘gitiga amal qilishga o‘gatish.

2. O‘qish ko‘nikmalarini takomillashirish.

3. O‘quvchilar lug‘atini “xilvat, mashaqqat“ so‘zlari bilan boyitish.

4. She’riy hikoyani o‘z so‘zi bilan to‘liq qayta hikoyalashga o‘rgatish orqali bog‘lanishli nutqini o‘stirish.

**Darsning turi.** Yangi bilim beruvchi, she’riy hikoya o‘qish darsi.

**Darsning metodi.** Suhbat, izohli o‘qish, tarmoqlash metodi.

**Darsning jihozi.** Xonada keksa kishi, nevara, kelin va o‘g‘il suhbat, chol va nevara tasvirlangan mazmunli rasmlar, vatman, flamaster.

**Darsning borishi.**

**I. O‘tilganlarni so‘rab, o‘quvchilarning bilimini, o‘qish ko‘nikmalarini aniqlash va mustahkamlash.**

**I. Savol-topshiriqlar.**

1. «Odamdan nima qoladi?» asarini kim yozgan?

2. Yusuf Xos Hojib haqida nimalarni bilib oldingsiz?

3. «Odamdan nima qoladi?» asarida nimalar haqida yozilgan?

4. Insonning vafotidan keyin qanday esgu qoladi?

5. Zahhok nima uchun qarg‘ishga duchor bo‘lgan? U kim bo‘lgan?

6. Faridunni nima uchun duo qiladilar? U kim bo‘lgan?

7. Qanday kishilar yaxshi degan nom oladi?

8. Saxiy odam deganda qanday kishilarni tushunasiz? Nima uchun ularning nomi tarixda qoladi deyiladi?

9. Qanday kishilar dono bo‘ladi?

**2. Tanlab o‘qish.** Topshiriq. Yozuvchi bilimsiz kishini nimaga tenglashtirgan? Shu o‘rinni topib o‘qing.


Yaxshi so‘zli kishilar haqida nima deyilgan? Shu o‘rinni topib o‘qing.

**3. Lug‘at ishi.** “Ezgu, ezgulik, zohhok, faridun“ kabi so‘zlarning ma’nalari so‘raladi.

**4. Yod aytish musoboqasi.** O‘quvchilar yod olib kelgan misralarini ifodali qilib aytadilar va mazmunini o‘z so‘zlari bilan gapirib beradilar.

**5. Uyga berilgan test ustida ishlash.**

Alp Er To‘nga qanday inson? Savoliga javob tarmoqlash usulida olinadi.



6. O'quvchilarning asar yuzasidan egallagan bilimlari umumlashtiriladi va baholanadi.

## **II. Yangi mavzu ustida ishlash.**

### **1. Asarni o'qishga o'quvchilarni tayyorlash.**

— Har kim ekanini o'rar deganda nimani tushunasiz? — Oilangizda keksa kishilardan kimlar siz bilan yashaydi?

— Ularga qanday muomala qilasiz?

— O'ylang, bugun darsimizda nima haqidagi asarni o'qiymiz? Doskaga asar nomi va muallifi yoziladi.

— Munavvarqori Abdurashidxonov haqida eshitganmisiz?

2. **She'riy hikoya bilan tanishtirish.** Hikoya magnit tasmasi orqali eshittiriladi. 3. **3. Asar yuzasidan dastlabki suhbat.**

— She'riy hikoya sizga yoqdimi?

— Unda kim haqida hikoya qilinadi?

— Asarda kimlar ishtirok etgan?

— Kimning gaplari sizga yoqmadi?

— O'g'li sizga yoqdimi? Nabirasi-chi?

### **4. Ichda o'qish. Topshiriq.**

— Ichingizda o'qing va ma'noasi tushunarsiz so'zlarni lug'at daftaringizga yozib boring.

-So'zlarni izohlashda darslikdagi lug'atlardan foydalaning.

### **5. Lug'at ishi.**

`Xilvat — ko'zdan pana joy

Mashaqqat — bajarish og'ir bo'lgan ish

6. **Qismlarga bo'lib o'qish.** She'riy hikoyaning 1-bo'limi qismga bo'linadi. Ikki o'quvchiga o'qitiladi. So'ng «She'riy hikoyani necha qismga bo'lish mumkin?» deb so'raladi. Vaqt imkoniyatiga qarab 2-3 marta o'qitiladi.

### **7. Tanlab o'qish.**

— Kekska ota tasvirlangan o'rinni topib o'qing (Non yeganda... Boshi bukilgan).

— Ikkinchi qismni topib o'qing. Unda nima haqida gap boradi?

### **8. Badiiy vositalar ustida ishlash.**

— Asarda jonlantirish, ya'ni jonsiz narsalarni jonli narsalardek gapirtirish qo'llanganmi? Ichingizda o'qib topishga harakat qiling.

(Non yeganda lablari burnt bilan so'zlashur)

### **9. Asarning 1-bo'limini rollarga bo'lib o'qitish.**

#### **10. Reja tuzish.**

1. Keksa otaning holati.
2. Uzoq cho'zilgan majlis.
3. O'g'il va nabira yo'lga tushdi.
4. Otaning pushaymoni.
5. O'g'il xizmatga bel bog'ladi.

#### **11. Reja asosida to'liq qayta hikoyalash.**

**12. Kelinga tavsif berish.** Tarmoqlash usulida amalga oshiriladi.

— Kelin sizda qanday taassurot qoldirdi?

— Kelinni qaysi so'zlar bilan ta'riflashni to'g'ri deb hisoblaysiz?

**13. Keksa otaga tavsif berish.** Keksa ota sizda qanday taassurot qoldirdi? Keksa otani qaysi so'zlar bilan tavsiflashni to'g'ri deb hisoblaysiz?

Javoblar:

g'am-tashvish tortishni istamaydi

rahmsiz

mashaqqatsiz yashashni sevadi

shafqatsiz

keksalarni qadrlamaydigan

o'zidan boshqani hurmat qilmaydi

qilgan ishidan pushaymon bo'lgan

rostgo'y

yordamga muhtoj

**14. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish va tarbiyaviy xulosa chiqarish.**

— Bugun kimning asari bilan tanishdingiz?

— Asarda kimlar haqida hikoya qilingan?

— Siz o'g'ilning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?

— Siz kelin bo'lganingizda qanday ish tutgan bo'lardingiz?

**15.Uyga vazifa.** Asarning 1-bo‘limini ifodali o‘qishga va qayta hikoyalab berishga tayyorlanib kelish. Testlarni yechish. Shu mavzuda ota-onangiz bilan suhbatlashing, ularning fikrini eshitib, kichik hikoyacha yozing.

### **Epik ertaklarni o‘rganish darslarini tashkil etish usullari**

O‘quvchilar xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan alla misolida go‘dakligidan tanishadilar. Keyinchalik ertak, sanama, tez aytish topishmoq, maqol kabi turli janrga mansub asarlarga duch keladilar. Har bir asarning o‘ziga xos maqsadi, mazmuni bo‘lgani kabi, har bir adabiy janrning ham o‘ziga xosligi bo‘lishi tabiiy.

Xalq og‘zaki ijodi yo‘lida yaratilgan adabiy ertaklar ham bo‘lib, ularni yozuvchi va shoirlar yaratadilar. Ularni o‘tish usulini Anvar Obidjonning “**Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak** “ she’riy ertagi misolida yoritamiz.

**O‘quv materiali. Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak.**  
(I,II,III bo‘lim) Anvar Obidjon

#### **Darsning maqsadi.**

1. O‘quvchilarning ertak jangi haqidagi nazariy bilimlarini aniqlash, boyitish. Ularning matnini ifodali o‘qish, topshiriqlar ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

2. O‘quvchilarning rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik fazilatlarini haqidagi tasavvurlarini boyitish, yolg‘onchilik, ochko‘zlikka qarshi nafrat uyg‘otish.

3. O‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini, bog‘lanishli nutqini o‘stirish, nutqlarining ta’sirchan bo‘lishiga erishish.

**Darsning turi:** Yangi bilim beruvchi, ertak o‘qish darsi.

**Darsning borishi:**

**Da’vat bosqichi:**

**Maqsad.** O‘quvchilarda mavzuni o‘rganishga va izlanishga rag‘bat uyg‘otish.

Metod: Izlanish, suhbat metodi.

— Ertaklar qanday janr? (Ertaklar xalq og‘zaki ijodi janri.)

— Ertaklarni qadimda qanday nomlashgan? (Ertaklarni cho‘pchak deb atashgan).

— Ertaklarda xalqning nimasi hikoya qilinadi?

— Ertaklarni kimlar ijod etadi? (Ertaklarni xalq va yozuvchilar ijod qiladi).

**O‘qituvchi hikoyasi.** Bolaligida eshitgan ertagidan ilhomlanib yozuvchilar bolalarga atab ertaklar yozishadi. Sizlar sevib tomosha qiladigan «Oltin baliqcha», «Shoh saltan haqida»gi ertaklarni ham rus yozuvchisi Aleksandr Sergeevich Pushkin yozgan. Bugun o‘qib o‘rganadigan «Bo‘rining tabib bo‘lgani haqidagi ertak»ni ham bolalar shoiri Anvar Obidjon yozgan. Ertakni Anvar Obidjon she‘r shaklida bitgan.

2. Anvar Obidjon haqida ma’lumot berish. Anvar Obidjon haqida nimalar bilasiz?

**II. Anglash bosqichi. Maqsad:** O‘quvchilarni «Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak» asari bilan tanishtirish, ifodali o‘qishga, ertak mazmun-mohiyatini to‘g‘ri va to‘liq anglab, mulohaza yuritishga, o‘zaro muhokama qilishga o‘rgatish.

**Metod.** Mustaqil ish, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash metodi.

O‘quvchilar 3 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga bir darsga ajratilgan ertak bo‘limining bir qismi beriladi.

**Topshiriqlar ustida ishlash.** Quyida berilgan topshiriqlar konvertga solib, har bir guruhga beriladi.

**1. Topshiriq.** Berilgan parchani o‘qing, ifodali o‘qib berishga tayyorlaning.

Bu topshiriq bo‘yicha ifodali o‘qish musobaqasi uyushtiriladi; 5 ta guruhdan 2 o‘quvchi turib, matnni ifodali o‘qiydi.

**2. Topshiriq.** O‘qigan matn parchasida ifoda etilgan ma’lumotlarni bilib oling. Izohlashga tayyorlaning.

O‘quvchilar taxminan quyidagicha fikri bildiradi:

*1-guruh:* Anvar Obidjon jahonda qiziq ishlar bo‘ladi, yer tes-kari aylanib hayvonlarni yeydigan bo‘ri ularni davolaydigan tabib bo‘yadi, — deydi. Tabib bo‘lsa ham yirtqichligini tashlamaganini quyidagi

misralarda ifoda etgan: Ana qarang Tish qayrab O‘tirar shum shifokor  
Yo‘lga boqar jodirab, Tezroq kelsa deb bemor. *2-guruh:* Bo‘ri yirtqich  
bo‘lishi bilan birga, hech narsani bil-maydi. Bilimsiz tabibdir. U  
quyonning biqini qolib chap ko‘zini tekshirdi. Oshqozon og‘riqni tumov  
deb ataydi. Bunga mana bu misralar misol bo‘lishi mumkin:

Bo‘ri yaqin o‘tirdi, — Kechikamiz dingquloq,  
Biqin qolib Ko‘rmasak tez chora gar  
Tekshirdi — Oshqozoning sal chatoq  
Quyoning chap ko‘zini. Buni «tumov» deydilar...

*3-guruh:* Bo‘ri tabib bo‘lib bemorlardan faqat o‘z foydasini  
ko‘zlaydi. To‘ng‘izchaning davosini go‘shini kesib topish mumkin  
deydi. Tomoq og‘riq boshlanar O‘ng oyoqning payidan Kesib olsak soz  
bo‘lar Go‘shlikkina joyidan.

**3. Topshiriq.** Lug‘at ustida ishlash. Har bir guruh o‘ziga te-gishli  
parchadagi tushunarsiz so‘zlar lug‘atini tuzadi. Darslikdagi lug‘atdan  
foydalanib ma’nosini izohlaydi.

*1-guruh* quyidagi so‘zlarni doskaga yozadi:

ters — teskari; yirtqich — vahshiy; bemor — kasal, betob. *2-  
guruh:* inim — ukam; gar — agar; muolaja qilamiz — davolaymiz. *3-  
guruh:* payi — muskuli; rostlab qoldi juftagin — qochib qoldi.

**4. Topshiriq.** Berilgan parchadan o‘xshatish, jonlantirish, ko‘p  
ma’noli so‘zlarni aniqlang.

Namuna.

*1-guruh:* dingquloq (quyon ma’nosida) — ko‘chma ma’noda  
ishlatilgan.

*3-guruh:* Rostlab qoldi juftagin (qochib qoldi) —ibora ko‘chma  
ma’noda.

**5. Topshiriq.** Berilgan parcha asosida savollar tuzing. Namuna.

*1-guruh:* — Bo‘ri kim qilib saylandi? — Shum shifokor nimalarni  
o‘ylab o‘tiribdi?

*2-guruh:* — Quyon tabib oldiga qanday kirib keldi? — Uning  
qayeri og‘riyotgan edi? — Bo‘ri unga qanday tashxis qo‘ydi? — U  
quyonga qanday davo ni qo‘llamoqchi bo‘lda?



*3-guruh:* Tolng‘iz bo‘rining oldiga qay holatda keldi? Bo‘ri to‘ng‘izning kasali sababini nima deb ko‘rsatdi? Nima uchun To‘ng‘iz juftakni rostlab qoldi?

**6. Topshiriq.** — Har bir bo‘limga mos sarlavha toping. Namuna.

1. Shum shifokor.

2. Bemor quyoncha.

3. Juftakni rostlagan To‘ng‘izcha.

**III. Fikrlash bosqichi. Maqsad.** Darslikda berilgan savol-topshiriqlar orqali egallangan bilimlarni aniqlash. O‘quvchilarning xu-losa chiqarish ko‘rnikmalarini shakllantirish.

**Metod.** Suhbat, test usuli.

1. Darslikda berilgan 1-2—savollar ustida ishlash.

— Quyon bilan to‘ng‘iz nima uchun qochib qolishdi?

— Bo‘rining huzuriga kimlar shifo izlab keldi?

— Qo‘shimcha savollar. Bo‘ri nima maqsadda tabib bo‘ldi? Tabiblar qanday bo‘lishi lozim? Sizning ichingizda shifokor bo‘lishni istovchilar bormi? Shifokor bo‘lish uchun nima qilish kera k deb o‘ylaysiz?

**2. Test sinovi.**

**3. Uyga vazifa.** Ertakni ifodali o‘qishga tayyorlanib kelish.

**4. Guruhlar to‘plagan ball e‘lon qilinadi.**

Ertakning 2-bo‘limi ham shu tarzda o‘rganilishi mumkin. Guruhlar quydagi so‘zlar ustida lug‘at ishi olib boradi.

O‘qituvchi kitobi

*Tul kampir* — beva kampir;

*muttahaam* — aldoqchi, shum;

*Dil xushlab* — xursand bo‘lib;

*notetik* — og‘rib;

*darg‘azab* — g‘azabnok, g‘azabli;

*ozor* — tashvish;

*quwatdori* — quwat beruvchi dori;

*xapdori* — tabletkalar.

## **Sinfdan tashqari o‘qish darslarida epik she’rlarni o‘rganish**

Sinfdan tashqari o‘qish darslarida turli janrdagi asarlar o‘rganiladi. Ular bolalar hayoti bilan bog‘liq ,o‘lishi, bolalar yozuvchilar tomomndan yaratilgan bo‘lishi, o‘quvchilarda yaxshi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Sinfdan tashqari o‘qish darslari ikki haftada bir marta tashkil qilinadi. Quyida 3-sinfda tashkil qilgan sinfdan tashqari o‘qish darsi namunasini keltiraman.

**Mavzu:** “Sehrli ko‘zacha” she’riy ertak

**O‘quv materiali:** **Sehrli ko‘zacha. Sodiqjon Inoyatov**

**Dars shiori:** Saxiy topsa barcha yer .

**Dars rejasi:**1. “To‘lab ber” hikoyasi yuzasidan o‘quvchilar bilimni aniqlash.

2. S.Inoyatovning “Sehrli ko‘zacha” she’riy ertagi ustida ishlash

3. Darsni yakunlash.

**Mavzuga doir tayanch tushunchalar:** *Xol, Nor, bo‘sh-bayov, mug‘ambirroq, faqirlik, mehnat, ro‘shnolik, himmat, ko‘za, to‘kinlik.*

**Mavzuning qisqacha ta’rifi:** Sodiqjon Inoyatov bu she’riy ertagining 1-qismida ikki do‘st Nor va Xolning faqirona hayotini tasvirlaydi. Norning falakka bo‘zlab qilgan iltijolariga g‘oyibdan kelgan ovoz g‘orda turgan sehrli ko‘za haqida xabar beradi. Nor sehrli ko‘zadan butun eliga to‘kinlik so‘raydi. Shoir ertak orqali saxiylik olijanob fazilat ekanligini uqtiradi.

**Darsning maqsadi:** 1. “Sehrli ko‘zacha” she’riy ertagining 1-qismi mazmuni bilan tanishtirish. El dardini o‘zining dardi deb bilgan odamlar haqidagi tushunchalarini boyitish.

2. Saxiy odamlar ishidan xursand bo‘lish, ulardan ibrat olish ruhida tarbiyalash. El manfaati yo‘lida mehnatlarini ayamaslikka o‘rgatish.

3. O‘quvchilarning she’riy ertakni ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘atini “*bo‘sh-bayov, mug‘ambirroq, mushkul, borliq, himmat, to‘kinlik*” so‘z va iboralari bilan boyitish. Badiiy til vositalarining vazifasini anglash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

**Metod:** Izohli o‘qish, didaktik o‘yin, interfaol metodlar, bahs-munozara.

**Shakl:** An’anaviy.

**Jihoz:** Kambag‘al dehqonlar turmushi, elning xursandchiligi aks etgan rasmlar, sehrli ko‘za, testlar.

**Kutilayotgan natija:** Dars yakunida o‘quvchilar ertaklar she’riy yo‘l bilan ham yozilishini, xalq dardi uchun qayg‘urish kerakligini tushunib yetadilar. O‘qish ko‘nikmalari takomillashadi.

**Darsning borishi**

**I. Tashkiliy qism. (2-3 daqiqa)** Sinf o‘quvchilari ikki guruhga ajratiladi. (1-guruh: Bilimdonlar. 2-guruh: Topqirlar.) Savol-javoblardagi ishtiroki “Reyting oynasi”da baholab boriladi.

**II. O‘tilgan mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimni aniqlash. (7-10 daqiqa)**

**1. “To‘lab ber” hikoyasini rollarga bo‘lib, ifodali o‘qish musobaqasi.** Guruhlararo o‘tkaziladi.

**2. “To‘lab ber” hikoyasining mazmuniga doir savol-javob:**

- “To‘lab ber” hikoyasini kim yozgan? Uning yana qaysi hikoyalari o‘qigansiz?

- Salima mehmonda Shahlo bilan nimalar qildi?

- Salima Shahloga nima uchun o‘yinchoq soatini uzatdi?

- Salima onasiga nima dedi?

**2. O‘quvchilarning lug‘at boyligini aniqlash.**

**O‘qituvchi:** - Quyidagi gaplarni to‘ldirib o‘qing. Qo‘ygan so‘zlaringizning ma’nosini izohlang.

- Men \_\_\_\_\_ bo‘laman, – dedi Shahlo. (murabbiya)

- A, men \_\_\_\_\_ bo‘laman, – dedi Salima. (shifokor)

- Tizzalari shilinib ketgan Salima og‘rig‘ini ham unutib, \_\_\_\_\_ qoldi. (dovdirab)

- Shahlo hamon tinmasdan \_\_\_\_\_ ko‘tarardi. (uvvos)

- U \_\_\_\_\_ hovlini boshiga ko‘tardi. (shang‘illab)

**3. Test yechish.**

**1. Salima Shahloga nima sovg‘a qildi?**

A. Bayroqcha. B. Kashta. C. Qo‘g‘irchoq

## 2. Salima bilan Shahlo qanday o‘yinlar o‘ynashdi?

A. Quvlashmachoq. B. She’r aytish, bog‘cha-bog‘cha. C.A va B.

## 3. Salima va Shahlo kim bo‘lishmoqchi ekan?

- A. Shahlo murabbiya, Salima shifokor
- B. Shahlo shifokor, Salima murabbiya
- C. Shahlo ham Salima shifokor bo‘lmoqchi

## 4. Salima nima uchun “Endi mehmonga bormayman” dedi?

- A. Yiqilib tushgani uchun
- B. Konfet berishmagani uchun
- C. Shahloning dodlashi va “To‘lab ber” degan xarxashasi uchun

## 4. Shahlo va Salimaga tavsif berish orqali tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- Salima nima uchun endi hech qachon mehmonga bormasligini aytdi?

- Shahlo bilan Salimaga baho bering. Siz ular o‘rnida bo‘lganingizda nima qilardingiz?

Salima	Shahlo	O‘quvchining xulosasi
...	...	...

## 5. Hikoyani to‘liq qayta hikoyalash musobaqasi.

### III. Yangi mavzu ustida ishlash. (25-30 daqiqa)

1. Ertakni o‘qishga o‘quvchilarni tayyorlash. Doskaga sehrli ko‘za rasmi ilib qo‘yiladi. Mavzu nomi yuzasidan yo‘naltiruvchi suhbat o‘tkaziladi:

- Ertaklarda sehrli kuchga ega bo‘lgan qanday narsalar haqida o‘qigansiz? (“ochil dasturxon”, “sehrli xumcha”, “ur to‘qmoq” haqida o‘qiganmiz).

- Rasmda tasvirlangan ko‘za qanday ko‘za bo‘lishi mumkin? (Sehrli ko‘za bo‘lishi mumkin).

- Nima uchun odamlar sehrli narsalarni orzu qilishgan?

- Bugun qanday narsa haqida ertak o‘qir ekanmiz?

Doskaga “Sehrli ko‘zacha” (Sodiqjon Inoyatov) deb yozib qo‘yiladi.

**2. Shoir Sodiqjon Inoyatov haqida ma'lumot.** Siz sevimli shoiringiz Tursunboy Adashboyevni she'rlari orqali yaxshi tanisiz. Uning ko'p she'rlarini yoddan bilasiz. Shoir o'zining bir shogirdi haqida "Ustozdan o'zgan shoir" deya fikr bildirgan. Bu shoirning ismi Sodiqjon Inoyatov.

Sodiqjon Inoyatov Xorazmlik iste'dodli shoir. Uning "Omon bo'lsa do'stlarim", "Yorug' kunlar" kabi to'plamlari bor.

Sodiqjon Inoyatovning "Sehri ko'zacha" deb nomlangan she'riy ertagini o'qib, uning qay darajada ustozidan o'zib ketganligiga amin bo'lasiz.

**3. She'riy ertak bilan tanishtirish.** O'qituvchi she'riy ertakning dastlabki 8 misrasini ifodali o'qib beradi. Qolgan qismini oldindan tayyorlangan o'quvchilarga o'qitadi. (Bu usul boshqa o'quvchilarda o'qish ishtiyoqini paydo qiladi)

**4. Ertak yuzasidan o'quvchilarning dastlabki taassurotlarini aniqlash.**

- "Sehri ko'zacha" ertagida nima haqida hikoya qilinar ekan? ("Sehri ko'zacha" she'riy ertagida ikki do'st Nor va Xolning faqirlik bilan hayot kechirishi. Soddadil va g'amxo'r Norning qishlog'i odamlariga, eliga baxt ulashishi haqida hikoya qilinadi.)

- Nor sizda qanday taassurot qoldirdi? Nima uchun?

**5. Ertakni qismlarga bo'lib o'qitish.**

**6. Ertak matni ustida ishlash. 1-topshiriq.** Ertakni qismlarga bo'ling. (2 qismga bo'linadi. 1-qism "Yumurtoy etagida" bilan boshlanib, "Non tugul bir ushoq ham" bilan tugaydi. 2-qism "Uning sabr kosasi" bilan boshlanadi.) O'qituvchi: 1-qism matni ustida 1-guruh, 2-qism matni ustida 2-guruh ishlaydi.

**2-topshiriq.** Ertakni ichingizda o'qing. Ma'nosini tushunmagan so'zlaringizni daftaringizga yozib boring. Ma'nosini darslikdagi izohli lug'atdan bilib oling.

O'qituvchi o'quvchilar belgilagan so'zlarni o'qitadi va suhbat yo'li bilan so'z ma'nolari ustida ishlanadi.

<p><i>Yumurtov</i> – Xorazmdagi tog‘ nomi</p> <p><i>mo‘jazgina</i> – kichkina</p>	<p><i>ro‘shnolik</i> – baxtli, farovon hayot</p> <p><i>ko‘hna</i> – qadimgi</p>
---	---

**3-topshiriq.** Ertak matnidan tasviriy vositalarni toping. Ularning ma’nosini izohlang. Namuna. “*Sabr kosasi limmo-lim to‘lgan*”, “*Nola chekibdi*”, “*Ro‘shnolik topmading*”, “*Shamolday yelib*”, “*Ko‘kda charaqlar quyosh Etganday shodlik va‘da*”, “*Nur yog‘ibdi*” tasviriy vositalarini topadilar.

*Sabr kosasi limmo-lim to‘lgan* – chidam va irodasi tugagan

*Nola chekibdi* – yolvorish, iltijo qilish

*Ro‘shnolik topmading* – baxtli hayot kechirmading

*Achchiq zahmat - qiyin ish*

*Shamolday yelib* – tez yugurib

*Ko‘kda charaqlar quyosh Etganday shodlik va‘da* – “*Quyoshning va‘dasi*” va “*odamning va‘dasi*” birikmalarini taqqoslab tushuntiriladi.

*Nur yog‘ibdi* – ko‘chma ma’no, hamma yoq yorishib ketmoq, xalqning hayotining yaxshilanishi

**4-topshiriq.** O‘z qisimingizga sarlavha toping, sarlavhani doskaga reja tarzida yozing. Qo‘ygan sarlavhangizni asoslang. O‘quvchilar taxminan quyidagicha sarlavha qo‘yishadi:

Reja

1. Qashshoq xalq.

2. Ro‘shnolik.

Reja qismiga matndan javob toping va ifodali o‘qing.

**5-topshiriq.** Ertak qahramoni Norga tarmoqlash usulida tavsif bering. Har bir fikringizni misollar bilan asoslang. (Xalq g‘amini yeydigan, mehribon, bo‘sh-bayov, sodda, faqir, zahmatkash, g‘amxo‘r...)

**6-topshiriq.** Ertakdan xulosa chiqaring. Quyidagi savollar guruhlariga beriladi.

- Xalqning qashshoq hayoti tasvirlangan o‘rinni o‘qing. O‘ylang, ular nima uchun qashshoq yashashar ekan? (O‘quvchilar o‘zlari ijodiy fikr bildiradilar)

- Nima uchun Norning tilagi ijobat bo'ldi?
- "Saxiy topsa barcha yer, Baxil topsa bosib yer" maqolining ertak mazmuni bilan qanday bog'liqligi bor?

- Norning qilgan tilaklaridan qanday xulosaga keldingiz?

**IV. Darsni yakunlash. (2-3 daqiqa) 1. Darsda o'rganilganlarni umumlashtirish.** Bugungi darsda nimalarni bilib oldingiz? Qaysi topshiriqlarni qiziqib bajardingiz? Qaysi topshiriqlarni bajarishda qiynaladingiz? Nima uchun?

**2. Uyga vazifa.** Ertakni ifodali o'qishga, to'liq qayta hikoyalashga tayyorlaning. O'zingizga yoqqan o'rinlarini yod oling. Ertakning har bir qismi mazmuniga mos rasm chizing yoki krossvord tuzib keling.

**3. O'quvchilarning va guruhlarining to'plagan ballarini e'lon qilish.**

**Izoh.** "Sehrli ko'zacha" ertagining ikkinchi qismi o'rganiladigan keyingi darsda quyidagi tahlil ishlari o'tkaziladi:

**Darsning mavzusi va shiori:** *Baxilning bog'i ko'karmas.*

**1. Ertak matni tahlilida quyidagi savol-topshiriqlardan foydalaniladi:**

- Xolning ko'ngli nima sababdan notinch bo'ldi?
- U Norni qanday so'zlar bilan avradi?
- "Olamni bosib zulmat Uyalgan kabi shu tob, Cho'qqining orqasiga Yashirinibdi oftob" misralari ma'nosini izohlang.
- Xolning tilagiga o'z munosabatingizni bildiring.
- Ertakning davomi nima bilan tugaydi? Siz qanday tugashini istardingiz? Hikoyani davom ettiring.

**2. Ertak ustida ishlash. 1-topshiriq.** Ertakning berilgan qismini o'qib, undan tasviriy vositalarni toping. Jadval asosida tahlil qiling. Namuna. "Oylar o'tib, shodumon", "Parokanda xayoli", "Zarra himmating bormi?", " **Do'stlik** muqaddas – tuyg'u, Unga **darz ketsa yomon**", "Omadidan entikib, So'zin boshladi xushhol", "Uyalgan kabi shu tob, Cho'qqining orqasiga Yashirinibdi oftob".

So'z ma'nosi	Ma'nodosh so'zlar	Ko'p ma'noli so'z	Jonlantirish
-----------------	----------------------	-------------------------	--------------

**2-topshiriq.** Ertak mazmuniga mos maqol toping. U ertakning mazmuni bilan bog‘liqligini izohlang.

**3-topshiriq. O‘z qisimingizga sarlavha toping.**

Sarlavhalarni doskaga reja tarzida yozing. O‘z rejalaringsizni matn asosida yoriting.

Namuna,

Reja:

1. Xolning baxilligi.
2. Baxilning jazosi.
3. Tugatilmagan ertak.

**4-topshiriq. Berilgan qismni qayta hikoyalang.** Doskaga ertak mazmuniga mos rasmlar ilib qo‘yiladi. O‘quvchilar rasmlar tartibida tayanch so‘zlardan foydalanib ertakni qayta hikoyalaydilar.

**5-topshiriq.** Testlarni yeching.

**1. Nor va Xol qanday kun kechirar edilar?**

- A. Rohatda, boy yashar edilar.
- B. O‘yin-kulgi bilan kun o‘tkazishardi.
- C. Qashshoqlikda yashar edilar.

**2. Nor qanday yigit edi?**

- A. Sodda, bo‘sh-bayov.
- B. Yolg‘onchi, mug‘ombir.
- C. Mehribon, g‘amxo‘r

**3. Xol qanday yigit edi?**

- A. Sodda, bo‘sh-bayov.
- B. Yolg‘onchi, mug‘ombir.
- C. Xasis, g‘amxo‘r

**4. Norga sehrli ko‘za haqida kim aytdi?**

- A. G‘oyibdan kelgan ovoz. B. Otasi. C. Onasi.

**5. Nor nima sababdan ko‘zani Xolga ko‘rsatdi?**

A. Do‘sti bo‘lgani uchun. B. Qo‘rqqanligi tufayli. C. Sinash uchun.



### 3. Nor va Xolga T usulida tavsif berish.

Nor	Xol	O'quvchining xulosasi
Xalq g'amini yeydi Mehribon Do'stlikni qadrlaydi Do'stiga sodiq Saxiy	Hasadgo'y Faqat o'zini o'ylaydigan Boylikka xirs qo'ygan Do'stidan o'z maqsadi yo'lida foydalanadi Yolg'onchi Xasis	...

- Siz kimga o'xshashni istaysiz? Buning uchun qanday ishlar qilishni xohlaysiz?

#### 4. Ertak yuzasidan tarbiyaviy xulosa chiqarish.

- "Baxillning bog'i ko'karmas" maqolining ertak mazmuni bilan qanday bog'liqligi bor?

"Baxilning bog'i ko'karmas" maqolining ma'nosini izohlang.

Namuna. Baxil odam - qizg'anchiq, hammasi o'zimga bo'lsin degan odam; ziqna, xasis odam; baxil odamning niyati amalga oshmaydi; birovga hech narsa bermaydi; birov-birovga narsa bersa ham ichi achiydi; mol-dunyo to'playdigan odam.

- Nima uchun Xolning istagi ushalmadi?

- Siz kimga o'xshashni istaysiz? Buning uchun qanday ishlar qilishni xohlaysiz?

**3. "Kun va tun" o'yini. Topshiriq.** Eshitgan maqollaringizdan ertak mazmuniga moslarida kun deb boshingizni ko'taring, mos kelmaydigan maqolda tun deb boshingizni parta ustiga qo'ying.

- Quduq shabnamga to'lmas, Baxil dunyoga to'ymas.

- Baxil ehsondan qochar, Xasis mehmondan qochar.

- Oz yesang asal bo'ladi, Ko'p yesang kasal qiladi.

- Dangasaning ishi bitmas.

Yoqiridagi dars namunalaridan ko'rinib turibdiki, epik she'rlarni o'qish darslari nasriy asarlar, voqealar tasvirlangan asarlar kabi o'rganiladi.

## **“Kumush qish” bo‘limidagi she‘riy asarlarni o‘rganish usullari**

She‘r ohang jihatidan ma‘lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir.

She‘rni o‘qiganda kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda she‘r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya‘ni she‘riy asarlar va lirik she‘rlar o‘qitiladi.

She‘rni o‘qish darslarida asosiy ish turi ifodali o‘qish hisoblanadi. O‘quvchi she‘rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o‘qiy oladi.

Lirik she‘rni o‘qish va tahlil qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. She‘riy ohangni his qilmaslik, matn so‘zlarini to‘la tushunib yetmaslik she‘r yodlashni zerikarli mashg‘ulotga aylantiradi. Ma‘nosi anglanmagan matnni yodlash oson kechmaydi.

4-sinfda Q. Hikmatning *“Qish to‘zg‘itar momiq par”* she‘rini o‘rganishda albatta tabiat manzaralarini izohlash talab etiladi. She‘rni o‘qishdan oldin unda tasvirlangan yil fasllari haqida suhbat o‘tkaziladi yoki she‘r mazmunini tushunish uchun o‘quvchilar bilishi lozim bo‘lgan voqealarni o‘qituvchi qisqa qilib aytib beradi.

Ma‘lumki, qish fasli go‘zal ko‘rinishi bilan odamda yoqimli tuyg‘ular uyg‘otadi. Qishda bolalar chana uchish, qorbobo yasash, qorbo‘ron o‘ynashdan olam-olam zavq oladilar. Qishdagi sof va toza havogina emas, oppoq qorga burkalib turgan daraxtlar, dala-bog‘lar kishida ajib bir kayfiyat uyg‘otadi.

*“Qish to‘zg‘itar momiq par”* (Qudrat Hikmat) she‘rini o‘rganish jarayonida agar qor yog‘magan bo‘lsa, ayni manzara tasvirlangan rasmlardan foydalanish ham mumkin. Qish fasli haqida gapirilar ekan, albatta, “kumush” sifati qo‘shib aytiladi. Bu shu fasl hukmronligi davridagi manzaraga, qorning oppoq bo‘lib tovlanishiga, ko‘zlarni qamashtirishiga ishoradir. Ushbu she‘rni o‘rganish darsi dastlab o‘quvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlashdan boshlanadi. Qishning o‘ziga xos belgilari, qishda o‘ynaladigan o‘yinlar, qish manzarasi yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. O‘quvchilarning qish

faslida sovuq bo'lishi tufayli ayrim qushlarning o'lkamizni tark etib janubga uchib ketishlari, qishda sovuqqa mos issiq kiyimlarning kiyilishi haqidagi tushunchalari aniqlashtirilib, to'ldiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi she'rni ifodali o'qiydi.

Boshlang'ich sinflarda ko'rgazmali ta'limning asosiy shakli she'rni ifodali o'qish hisoblanadi. Lirik she'rni ham o'quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. Shuning uchun she'r birinchi marta o'qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She'r o'quvchilarga qanday ta'sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O'qituvchi she'rni shunday ifodali O'qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini anglasinlar, ularga jonli so'z kuchliroq ta'sir etsin. So'ngra she'rni mustaqil O'qish topshiriladi. O'qish oddiy bo'lishi kerak. O'qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g'azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo'l qo'ymaslik zarur. Bolalar she'rni o'qiganda, she'riy satrga rioya qilishlari kerak, bu jarayonda ularning she'r ritmini buzmasliklariga erishish kerak.

O'quvchilar she'r matnini mustaqil o'qiyotganlarida xattaxtaga ma'nosi izohlanadigan so'zlar yozib qo'yiladi. Masalan, "*Qish to'zg'itar momiq par*" she'ri o'rganilganda "*to'zg'itar*", "*momiq par*", "*oq namat*", "*nazdimda*", "*zarra*" so'zlari izohlanadi. SHundan so'ng, she'r o'quvchilarga navbat bilan o'qittiriladi, uning mazmuni yuzasidan savollar asosida suhbat o'tkaziladi. Bunda quyidagicha savollar berilishi mumkin: "*She'rda qaysi fasl tasvirlangan ekan?*", "*Shoir qor yoqqan joylarni nimaga o'xshatadi?*", "*She'rda qor yog'ishi nimaga qiyoslangan?*", "*Shoir qorga qanday murojaat qiladi?*". O'qituvchi berilgan javoblarni to'ldirib, o'quvchilarning qish fasliga doir tushunchalarini boyitadi.

"*Qish*" (Tursunboy Adashboev) she'rining hajmi unchalik katta emas. Lekin u qishda hayvonlar hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarni bilib olishga yaqindan yordam beradi. Bu she'rni o'qishdan oldin ham o'quvchilar bilan savol-javoblar o'tkaziladi. O'quvchilar diqqati hayvonlarning qishdagi hayotiga qaratiladi. Masalan, qishda yovvoyi quyonlarning rangi o'zgarib, qorda o'zini dushmandan himoya qiladigan oq rangga kirishi, ayiqning o'siq yunglari sovuqda yashashga

qo‘l kelishi to‘g‘risida tushuncha beriladi. She‘r matni bilan tanishishdan oldin xattaxtaga “*ayoz*”, “*quyruq*”, “*so‘qmoq*”, “*piyma*”, “*po‘stin*” “*pahmoq*” so‘zlari yozilib, ma‘nosi izohlanadi. She‘rni navbat bilan o‘quvchilarga to‘rt-besh marta o‘qitilganidan keyin uning mazmuni yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. She‘rning to‘la mazmuni uch-to‘rt o‘quvchilarga gapirtiriladi, ularning fikr-mulohazalari to‘ldiriladi. Mazkur mavzuni o‘rganish jarayonida maktab atrofiga sayohat uyushtirish ham mumkin. Qishda qor bosgan dalalarni, tomlarni, daraxtlarni, odamlarning va qushlarning qishdagi hayotini kuzatish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va nutqining ifodali, sermazmun bo‘lishi uchun boy material beradi.

O‘quvchilar barglari to‘kilib, sovuqda qor bosib turgan daraxtlarni ko‘rar ekan, shu holatni ifodalagan “*qor ko‘rpasiga o‘rangan yalang‘och daraxt*” yoki “*sovuqda mudrayotgan daraxt*” kabi iboralarni topishga harakat qiladi, bu esa o‘quvchilarning lug‘at boyligining oshishiga xizmat qiladi.

She‘r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, she‘r mazmuni haqida o‘quvchilarga ko‘p savol berish tavsiya etilmaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan ko‘pgina she‘rlarni tahlil qilib, ifodali O‘qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi.

She‘riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg‘u uyg‘otadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodda ritmli jarangdor she‘rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarga she‘rni qanday yodlash kerakligi o‘rgatiladi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan she‘rni teng satrli bir necha qismga bo‘ladi. O‘quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to‘xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo‘lishi shart emasligi, ritmik to‘xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo‘lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.

**Mavzu.** Qor – hayot suvi.

**O‘quv materiali.** Qish to‘zg‘itar momiq par (Qudrat Hikmat).

**Darsning maqsadi:**

1. O‘quvchilarni she‘rni ifodali o‘qishga, she‘r matni ustida ishlashga o‘rgatish; shoirning qish fasli xususiyatlarini she‘r orqali tasvirlashdagi mahoratini ochib berish; o‘quvchilarning qishning xususiyatlari, qorning hayot uchun foydasi haqidagi tushunchalarini boyitish.

2. O‘quvchilarning lug‘atiga *bulut to‘shagi, momiq par, oq namat (qor), izg‘irin, hovuz, mo‘rkom, surunkasi, fayz bermoq, oq choyshab* kabi so‘z va ibora, tasviriy ifodalarni kiritish.

3. O‘quvchilarning mustaqil ishlash, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish.

4. Tabiatni sevish, uning ehsonlarini qadrlashga o‘rgatish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, lirik she‘r o‘rganiladigan dars.

**Darsda qo‘llaniladigan metodlar:** izohli o‘qish, mustaqil ish metodi, tarmoqlash metodi.

**Darsning jihozi:** qish fasli tasvirlangan rasmlar, Q. Hikmat portreti, shoir haqidagi ma‘lumotlar yozilgan ko‘rgazma.

### **DARSNING BORISHI:**

**1. O‘quvchilarda yangi mavzuni o‘rganishga qiziqish uyg‘otish, topishmoq aytish yo‘li bilan bugungi darsning mavzusini aniqlashtirish:**

*Oppoqqina dasturxon*

*yer yuzini qoplagan. (Qor)*

*Bostirdim ikki tovuq,*

*Biri issiq, biri sovuq. (Yoz, qish)*

**Savol:** Bugungi O‘qish darsimiz qaysi mavzu haqida ekan?

**2. Qish fasli haqida kirish suhbat.** Xattaxtaga qish fasli tasvirlangan rasmlar ilinadi va savollar beriladi:

– Yil qaysi fasl bilan boshlanadi?


– Qish fasli haqida nimalarni bilasiz? Rasmlardan foydalanib so‘zlang.

– Qish bekorchilik faslimi?

**Qor haqidagi afsona qisqa soʻzlab beriladi:** Qadimda osmondan un yogʻilar ekan. Odamlar oʻz ehtiyojlariga yarashasini olib, uylariga olib kirar ekan. Qishloqda bir ochkoʻz boy unlarning oʻziga keragidan ham ortigʻini qoplab oʻz uyiga tashiy boshlabdi. Hatto yer yuzini chegaralab olibdi. Oʻz yerim degan joylardagi unlarni boshqalarga bermabdi. Shunda osmon-u qish va bulutlarning jahli chiqib, unlarni muzdek qorga aylantirib qoʻyishibdi.

**Savol:** Tabiatda ranglar har xil. Siz qaysi ranglarni yaxshi, yoqimli deb hisoblaysiz?

**3. Oʻquvchilarning qish fasli haqidagi tushunchalarini aniqlash.** Buning uchun qish fasliga xos xususiyatlarni aytish topshirigʻi beriladi. Oʻqituvchi tarmoqlash usulida yozib boradi:



**4. Xattaxtaga «Qish toʻzgʻitar momiq par» (Quadrat Hikmat) deb yoziladi. Oʻqituvchi savol beradi va javoblarni umumlashtirib, toʻldiradi:**

– She’r muallifi kim ekan? U haqida nimalarni bilasiz?

**O‘qituvchi hikoyasi.** Quadrat Hikmat – iste’dodli bolalar shoiri. U qisqa umr ko‘rgan. Shoir o‘z ijodini kichkintoylarni ilmga ishtiyoq, ona-Vatanga, jonajon yurtimizga sadoqat ruhida tarbiyalashga bag‘ishlagan.

Quadrat Hikmat 1925 yilda Toshkent shahrida kambag‘al dehqon oilasida tug‘ildi. Birinchi she’rlari 1945 yilda bolalar gazetalarida bosildi.

1960-yildan boshlab bolalar nashriyotida ishladi.

Uning «Mening Vatanim» (1950), «Baxtli bolalar» (1952), «Obodlik» (1953), «Do‘stlik» (1954), «Rodnoy Uzbekistan» (1955) kabi qator she’riy to‘plamlari nashr etilgan. Keyinchalik «Ilonshoh va uning amaldori ari haqida ertak» (1963), «Soatjonning soati» (1964), «Toshbaqalar hujumi» (1965), «Daydi bola», «O‘g‘lim bilan suhbat» kabi kitoblari bosilgan.

Kitoblari ko‘rsatiladi. Ularni O‘qishga da’vat etiladi.

O‘qituvchi shoirning biror she’ridan parcha o‘qib berishi ham mumkin. Masalan:

### **Tinchlik haqida qo‘shiq**

*Tinchlik juda soz,*

*To‘kin-sochin yoz.*

*O‘q tovushi chiqmas,*

*Yangrar do‘stlik, soz.*

*– Bo‘lsa-chi urush*

*O‘t tushar har yon.*

*Tinch, shirin turmush,*

*Bo‘ladi vayron.*

**5. She’r bilan tanishtirish.** O‘qituvchi she’rni ifodali o‘qib (yoki yod aytib) beradi.

**6. She’r yuzasidan kirish suhbat.**

– She’r nima haqida ekan?

– She’rdagi qaysi jumlar sizga juda yoqdi? Nima uchun?

**7. She’rni ichda o‘qish.**

**8. She’rni topshiriqlar asosida o‘qitish.**

– Birinchi toʻrtlikni oʻqing. Unda qaysi soʻz va iboralar oʻz maʼnosida qoʻllanmagan? Ularning qaysi maʼnoda qoʻllanganini izohlashga harakat qiling.

– Quyidagi toʻrtlikning qaysi misralarida jonlantirish qoʻllangan? Jonlantirish deganda nimani tushunasiz?

*Mahalla-koʻy koʻchada*

*CHuvurlashib qor kurar,*

*Esib sovuq izgʻirin:*

– *Tezroq yur! — deb buyurar.*

– Quyidagi toʻrtlikning keyingi ikki misrasidagi soʻzlarning maʼnosini tushuntirishga harakat qiling.

*Pirpiratib koʻzini*

*Avtobuslar oʻtadi.*

*Qahraton qish hovurni*

*Moʻrkon kabi yutadi.*

**Mustaqil ish. 1-topshiriq:** Sheʼrni ichingizda qayta oʻqing. Qaysi misrada oʻxshatish borligini aniqlang.

**Oʻquvchilar:**

*Tomlar kiydi oq qalpoq*

*Hovlilarda sen tepa.*

*Osmon elak, nazdimda,*

*SHahrimizga un separ.*

– Oxirgi toʻrtlikdagi “*Oʻra kumush choyshabga*” misrasida ham oʻxshatish bor.

**2-topshiriq:** SHEʼrni yana ichingizda oʻqib, qorga berilgan buyruqni toping.

**Oʻquvchilar:**

*Etar shuncha yoqqaning*

*Uzoq dala, qirga bor!* (buyruq)

*Vodiylarga fayz berib*

*Gullat bogʻ-u rogʻini.* ( buyruq)

*Oʻra kumush choyshabga,*



O'lkamning har yog'ini.

**3-topshiriq:** Jonsiz narsalar she'rdagi jonli qilib ifoda etilgan misralarni toping.

*Ular seni kutmoqda*

*Har zarrangga bo'lib zor.*

*Savab bulut to'shagin*

*Qish to'zg'itar momiq par* – misralarida qaysi badiiy vosita qo'llanganini ayting.

**9. She'rdagi qahramonlar ustida ishlash.** Savollar beriladi:

– *She'rdagi nimalar haqida gap boryapti?*

– *Ularni she'rdagi qahramonlar deyish mumkinmi? Nima uchun?*

– *O'ylang, she'rdagi nechta qahramon bor? Ular qaysilar?* (Qish, izg'irin, avtobus, osmon)

– *She'rdagi kim g'orga qarata gapiryapti?* (Shoir)

– *Shoirning qorga qarata aytgan gaplarini o'qing.*

**10. Darslikdagi savol-topshiriqlar ustida ishlash.**

*Osmon elak nazdimda*

*Shahrimizga un separ...*

*O'ra kumush choyshabga*

*O'lkamning har yog'ini,* – deganda shoir nimalarni nazarda tutadi?

**11. Uyga vazifa.** She'rni yod oling. She'r mazmuniga mos rasm ishlang.

**Ijodiy ish uchun topshiriq:** She'rdan olgan taassurotingizdan foydalanib, *qish, qor, sovuq* haqida 4-5 gapli matn tuzing. Matningizda she'r matnidagi quyidagi so'z va iboralardan foydalaning: *momiq par, oq choyshab, qahraton qish, osmon elak, qor zarralari, izg'irin, fayz beradi, oq kiyimda.*

**Namuna:** Qahraton qish kunlari edi. Osmon elak kabi qor zarralarini yerga elardi. Yer bir zumda oq choyshabga o'raldi. Daraxtlar qordan oq kiyim kiydi. Bu qishlog'imizga fayz berib turardi.

**12. Yakunlovchi suhbat.**

## XULOSA

XXI asrning birinchi choragi mamlakatimiz hayotida katta rivojlanish davri bo'lib tarix sahifalaridan o'rin oladi. Jamiyatimizning barcha sohalarida tub o'zgartishlar yuz berdi. Xalqimizning turmush farovonligini ta'minlash maqsadida uy-joy qurulishiga, bolalarning kichik yoshdan mamlakatimizning barcha go'shalarida jahon standarti asosida unib-o'sishini ta'minlashga e'tibor kuchaytirildi. Maktabgacha tarbiya muassasalari qurildi va jihozlandi. Boshlang'ich sinfda o'qitish usullarini yngilash ishlari jadallashtirildi. Kadrlarni jahon standarti talablari asosida o'qitish va joylarga yetkazish ishlari olib borilmoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonlari mamlakatimizning ustivor sohalaridan biri sifatida e'tirof etildi. Modomiki, qaysi bir jamiyat kelajakning muqaddas marralariga ishonch bilan odim tashlab borar ekan, ta'lim va tarbiyaga, yoshlarning kamolotiga e'tibor berishi tabiiy va qonuniy bo'ladi.

2. Barkamol avlodni tarbiyalashda o'qish darslarida badiiy asarlar matni ustida ishlash, jumladan, epik asarlar matni ustida ishlash muhim ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklariga o'quvchi shaxsiga kuchli ta'sir qiladigan she'riy epik asarlarni ko'proq kiritish lozim deb hisoblaymiz.

3. Epik she'rni, ya'ni she'riy hikoyani tahlil qilishda, asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo'llangan ish turlaridan foydalaniladi. Epik (voqeiy) she'rlar yoki she'riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqeani umumlashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o'xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so'zlarning qo'llanishi bilan she'riy nutq sanaladi. Shu sababli bunday asarlarni o'rganishda she'r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalaniladi. She'riy matn tahliliga qo'yiladigan talablarga ko'proq o'rin beriladi.

4. Epik she'rni izohli o'qish darsining tuzilishida epik she'r mazmunini yaxlit idrok etish uchun uni ifodali o'qib berishga; epik she'rda tasvirlangan payt, hodisa haqida tayyorlovchi suhbat; epik she'rni qismlarga bo'lib o'qishga; qahramonlarga tavsif berishga, tarbiyaviy xulosa chiqarishga katta e'tabor qaratiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umumiy Oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi. “Boshlangʻich taʼlim“ jurnali. 2016. 5-soni.
2. B.R. Adizov. Boshlangʻich taʼlimni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari. Ped.fan.dok. diss. –T., 2003. R.Mavlonova va b. Pedagogika. –T., “Oʻqituvchi“. 2001.
3. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumtaʼlim maktabida oʻqitish metodlari. –T., “Oʻqituvchi“. 1990, 247 bet.
4. Jalilova M., Neʼmatova G. Takrorlash mashgʻulotlarini “Topqirlar bellashuvi“ tarzida oʻtkazish.\\ Til va adabiyot taʼlimi, 1994. 2-3-soni. 36-37- bet.
5. Matchonov S. va b. Boshlangʻich sinf oʻqish darslarini ilgʻor pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. –T., Yangiyoʻl poligraf serfis. 2008.
6. Maxmutov M.I. Maktabda problemali taʼlimni tashkil qilish. (Oʻqituvchilar uchun qoʻllanma). T., Oʻqituvchi. 1981- 191 bet.
7. Qosimova K.va b. Ona tili oʻqitish metodikasi. -T., Noshir.2009, 276 bet.
8. Usmonova D. Mavzuni mustahkamlashda qiziqarli topshiriqlardan foydalanish.
9. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. “Entsiklopediya“–T., 2006. 2-tom. 205-bet.
10. T.Gʻafforova va b. Oʻqish kitobi. 1- sinf uchun, –T.: “Sharq“, 2018.
11. T.Gʻafforova va b. Oʻqish kitobi. 2- sinf uchun, –T.: “Sharq“, 2018
12. M.Umarova va b. Oʻqish kitobi. 3- sinf uchun, –T.: “Oʻzbekiston“, 2018.
13. S.Matchonov va b. Oʻqish kitobi. 4-sinf uchun. –T., Yangiyoʻl poligraf serfis. 2018.
14. S.Matchonov va b. Boshlangʻich sinf oʻqish darslarida ilgʻor pedagogik texnologiyalardan foydalanish. –T., Yangiyoʻl poligraf servis. 2008.

15. T.G'afforova va b. 1- sinfda o'qish darslari. –T.: “Tafakkur“, 2012.
16. T.G'afforova va b. 2- sinfda o'qish darslari. –T.: “Sharq“, 2013.
17. M.Umarova va b. 3- sinfda o'qish darslari. –T.: “O'zbekiston“, 2013.
18. S.Matchonov va b. 4-sinfda o'qish darslari. –T., Yangiyo'l poligraf serfis. 2007.
19. X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. 1- ma'ruza matni, –T.: TDPU, 2002.

## MUNDARIJA

Muqaddima .....	3
O‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish yo‘nalishlari .....	4
She‘riy matnlar ustida ishlash .....	7
Hikoya matni ustida ishlash .....	16
O‘qish darsliklarida epik she‘rlarning tutgan o‘rni.....	23
O‘quvchilarni epik she‘rlarni o‘qishga tayyorlash .....	24
Epik hikoyalarni o‘rganish darslarini tashkil etish usullari.....	26
Epik ertaklarni o‘rganish darslarini tashkil etish usullari ...	30
Sinfдан tashqari o‘qish darslarida epik she‘rlarni o‘rganish .....	34
Kumush qish bo‘limidagi she‘riy asarlarni o‘rganish usullari.....	42
Xulosa .....	50
Foydalanilgan adabiyotlar.....	51

**ERGASHEVA G.A.**

**O‘QISH DARSLARIDA SHE’RIY MATNLAR VA EPIK  
SHE’RLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI**

*Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun*

(Uslubiy qo‘llanma)

“QAMAR MEDIA” NASHRIYOTI

**Muharrir:** Muhammad Sobir  
**Musahhah:** Osima Sobirjon qizi

**ISBN 978-9943-8048-6-9**

“Qamar media” nashriyoti, Toshkent shahar, Mirobod tumani  
Qo‘yliq mavze-4, 3-uy, 26-xonadon. tel.: +99894-672-71-11

Terishga berildi: 05.06.2022-yil. Bosishga ruxsat etildi: 08.06.2022-yil.

Bichimi 60x84<sup>1/16</sup>, “Cambria” garniturasida.

Bosma tabog‘i 5,25. Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 2022/18

Noshirlik litsenziyasi: № 18-4178

---

Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasida chop etildi